



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha  
va maktab ta'limi vazirligi

\_\_\_\_\_ning  
maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi qo'llab-quvvatlashi  
\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_\_\_ -maktabgacha shu tashkiloti  
katta guruh tarbiyachisi

\_\_\_\_\_ning  
takomillashishidan iborat "Ilk qadam"

o'qitish dasturi asosida

*"Bilish foydali"*

\_\_\_\_\_ asosida tashkillangan

# MA'LUMAT MAOLIYAT ISHLANMASI

(Avgust oyining 2-haftasi)

**veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

**+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.**

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

*Hujjat word variant dos. formatda beriladi.*

*Katta guruhlarga avgust oyi 2-hafta "Buni bilish foydali" mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.*




**Narxi: 5 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@maktabgacha\_tt**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

**Guruh: Katta guruhlar uchun**  
**Oy mavzusi: Quvnoq va sog'lom bolalar**  
**Hafta mavzusi: Buni bilish foydali**

**Ta'limiy faoliyat maqsadlari**

**Ta'limiy:**

tarbiyalanuvchilarga ota-onani e'zozlashni o'rgatish, ularda tasavvur va ijodkorlikni kuchaytirish;

**Rivojlantiruvchi:**

ertak, topishmoq va savol-javob vositasida bolalarning nutqi- ni o'stirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarni

ota-onaga izzat-hurmatda bo'lishga o'rnatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, turli kasb va ish suratlari.

Ta'limiy faoliyatning borishi

**Tarbiyachi:** - Assalomu alaykum, bizning bilimdon

tarbiyalanuvchilarim. Hozir haqiqatdagi bizning monitorga qarang va unda kimlar tasvirlanganini ko'ring.

**(Monitorda turli kasblar va ishlar kishilar suratlari qo'yiladi, bolalar ularning kasbi nimeligini so'zlab berishadi.)**

**Tarbiyachi:** - Bolalar, bizning oilamizda, askar ham, harbiy ham, quruvchi-yu dasturxon, boringki, hamma-hamma sohada sizning dadangiz xizmat qiladilar. Ularsiz bir kunimizni ham tasavvur qilolmaymiz. Nafas korxonada yoki zavodda, balki oilada ham dadamizning alohida o'rnini bor. Ularni oila ustuni, g'amxo'ri sifatida har qancha avaylasak, e'zozlasak shuncha kam. Xo'sh, sizning uyingizda dadangiz nima ishlarni bajaradilar?

**1-bola:** - Bizning oilada har doim biror ish qilishdan oldin dadamdan maslahat so'raymiz.

**2-bola:** - Biz esa o'zimizga yoki uyimizga biror buyum xarid qilish kerak bo'lsa, birinchi dadamdan so'raymiz.

**3-bola:** - Dam olish kunida qayerda dam olishimizni ham dadamiz aytadilar.

**1-bola:** - Uyimizda biror narsa buzilib qolsa ham dadamiz uni



- Matvejka -

tuzatadilar.

**2-bola:** - Uyimizga dadam bozorlik qilib keladilar.

**Tarbiyachi:** - Qarang, bolajonlar, dadamiz shuncha yumushni bajararkanlar. Biz bunga javoban qanday javob beramiz. Ya'ni, ularga qanday yordam berishimiz mumkin?

**1-bola:** - Men ularning mashinalarini yuvishga yordam beraman.

**2-bola:** - Men esa ular ishga ketayotganlarida har doim soatlarini olib kelib beraman.

**3-bola:** - Men esa dadam bozor qilishga borganlarida yo'larida birga borib, ularga yordam beraman.

**Tarbiyachi:** - Barakalla, bolajonlar, har doim otamiz oila uchun bo'lgan. Ota- sini e'zozlagan, uni hurmat qilgan odam doim yordam topadi. Hozir esa mavzuga doir Abdulla Avloniyning ittifoq nomli hikoyasini o'qib bermoqchiman.

Jonivorlar ichinda eng kichiklari chumolidir. Lekin ular kichik bo'lsalar ham nihoyatda g'ayratli, ittifoq har qanday yordam topadilar. O'zlaricha podsholari. Kattalari, askarlari bo'lsa, ularning buyurug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratli odamlar o'zlaridan katta-katta dushmanlardan qo'rqmaslar. Agar ular dushman kelub, birlariga tegsa. Hamma-hammalari birlashib, biri qo'lini, biri oyog'ini, biri qanotini qattiq tishlab, dushmanidan necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochirurlar.



Ko'rdingizmu. Buning o'zi xo'b maydadur,  
Birlashib arqon bo'lsa, fil boylanar.  
Ittifoqqa kuch-quvvat kor aylamas,  
Ittifoqqa jin ham ozor aylamas.

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, ko'rdingizmi, oilada ham ahil bo'lish hatto chumolilarni ham qudratli qilib yuborar ekan. Kelinglar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

**(Tarbiyachi harakatlarni ko'rsatib turadi.)**

Ko'kda qanotin qoqqan,  
Qaldirg'ochim qaldirg'och.  
Bahor faslin chorlagan,  
Qaldirg'ochim, qaldirg'och.

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, orangizda kim otalar haqida maqol biladi?

**1-bola:** - Ota - oila ustuni.

**2-bola:** - Ota qanday bo'lsa, bola ham shunday boiadi.



### ***Til va nutq***

Mavzu: Yo'l harakati xavfsizligi qoidalari

Maqsad: bolalar yo'l harakati qoidalari va belgilarini biladilar, ularni farqlaydilar, yo'l harakati qoidalariga rioya qiladilar.

Kerakli jihozlar: rasmlar, plakatlari, o'yinchoq mashinalar, mulyajlar, shartli belgilar. Faoliyatning borishi:

Yo'l harakati belgilarining rasmlarini ko'rish.

Har bir belgini izohlash.

Yo'l harakati xavfsizligi qoidalari rasmlari bilan xarakatli o'yin o'ynash.

Bolalar ishtirokini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: yo'l harakati qoidalari haqida multfilm namoyishi.

Alohida e'tibor qaratiladi: yo'l harakati belgilarini izohlash jarayonida nutqning ravonligi.

### **San'at**

Mavzu: Yo'l belgilari

Maqsad: bolalar yo'l belgilarini bo'yoqlar orqali ifodalaydilar.

Kerakli jihozlar: rangli va oddiy qora qalamlar, rangli bo'rlar, guash, akvarel bo'yoqlari, turli mo'yqalamlar, suv idish, salfetka Faoliyatning borishi:

Yo'l belgilari mavzusidagi rasmni tomosha qilish.


Ishni rejalashtirish.

Ish jarayoni.

Ishlar natijalarini muhokama qilish.

Qo'shimcha: ota-onalar uchun ko'rgazma tashkil etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: ozoda va gigienik talablarga rioya qilish ishlar ko'nikmasining rivojlanishi.



### **Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi**

Mavzu: "Yo'l belgilari", "Raqami bo'yicha terib ber" sonli qirqma rasmlar asosida yig'amiz

Maqsad: bolalar taklif qilingan materiallardan yo'l belgilarini yig'adilar, yo'l belgilari nimaga xizmat qilishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Kerakli jihozlar: pazllar, sonli kesma rasmlar, yo'l belgilari.

Faoliyatning olib borilishi:

Yo‘l belgilari tasvirlangan rasmlarni ko‘rish va kuzatish.

Yo‘l belgilarini raqami bo‘yicha taxlashni rejalashtirish.

Yo‘l belgilarini taxlash.

Taxlangan yo‘l belgilarining taqdimotini amalga oshirish.

Bolalar tomonidan taxlangan belgilarni muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Ishlatilgan materiallarni miqdorini sanash va shakllari bo‘yicha ajratish. Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga uyga ketayotganda yo‘l belgilarini kuzatish va o‘xshashini topishni taklif qiladi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yo‘l belgilariga rioya etishning inson hayotidagi ahamiyati.

### ***Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish***

***Mavzu: Avtobus***

Maqsad: bolalar avtobus turlarini farqlaydilar.

Kerakli jihozlar: haydovchi kiyimi, salon va o‘rindiqlar.

Faoliyatning borishi:

Avtobus turlari aks etgan rasmlarni ko‘rib chiqish.

Rollarni taqsimlash.

O‘yin uchun kerakli atributlarni tanlash.

“Avtobusda ketayapmiz” sahnasini qo‘yish.

Ijro etilgan sahnani muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: “Avtobus bekati” o‘yini.

Alohida e‘tibor qaratiladi: hayot xavfsizligi qoidalari.



## *Fan va tabiat*

Mavzu: Havo markazi (ekologik tarbiya)

Maqsad: bolalar havo xususiyatlari haqidagi bilimlarini amaliy tajribalar orqali mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: bo'sh stakan, qog'oz salfetka, suv.

Faoliyatning borishi:

Amaliy tajriba:

Bo'sh stakan tagiga qog'oz salfetka yopishtiriladi va stakan teskari o'girib suvga tushiriladi.

Stakan suv bilan to'ladi, ichidagi qog'oz salfetka stakan ichida havo borligi uchun quruq qoladi.

Tajribani muhokama qilish.

Bolalar bilan o'tilgan tajribadan hulosa chiqarish.

Qo'shimcha: yonib turgan sham ustiga stakan yopilganda shi (havoning siqib chiqarilishi) tajribasini o'tkazish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tajribalar o'tkazish jarayonida bolalar faolligi.

